OCHIQLIK VA PRAGMATIZM: YANGI O‘ZBEKISTON TASHQI SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI

Axmedov Jasur Israilovich
Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi
jasur.ahmedov2212@gmail.com

Abstract. The article traces the evolution of Uzbekistan’s foreign policy from the cautious, relatively closed model of 1991–2016 to the open, pragmatic and multi-vector course pursued since 2016. It argues that openness and pragmatism are complementary yet potentially conflicting principles, examines regional cooperation in Central Asia, economic diplomacy and balancing among major powers, and discusses structural constraints such as trade concentration, remittance dependence and the still-pending WTO accession.

Keywords: New Uzbekistan, foreign policy, openness, pragmatism, multi-vector diplomacy, international relations, Central Asia, economic diplomacy, WTO.

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston tashqi siyosatining 1991–2016-yillardagi ehtiyotkor va nisbatan yopiq modelidan 2016-yildan keyingi ochiq, pragmatik va ko‘p vektorli kursga o‘tish jarayoni tahlil qilinadi. Markaziy Osiyo yo‘nalishidagi yutuqlar (chegara masalalarini hal etish, Maslahat uchrashuvlari formati, “Markaziy Osiyo hamjamiyati” tashabbusi), iqtisodiy diplomatiya (JSTga a’zolikka tayyorgarlik, investitsiyalarni jalb etish, transport koridorlari) hamda yirik kuchlar bilan muvozanatli munosabatlar o‘rganiladi. Shuningdek, tashqi savdo va mehnat migratsiyasidagi bog‘liqlik, JSTga a’zolik jarayonining hali yakunlanmagani kabi cheklovlar ochiq ko‘rsatiladi. Xulosada tashqi siyosat evolyutsiyasining keyingi bosqichi uchun amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tashqi siyosat, ochiqlik, pragmatizm, ko‘p vektorli diplomatiya, xalqaro aloqalar, Markaziy Osiyo, iqtisodiy diplomatiya, JST, transport koridorlari.

Xalqaro munosabatlar tizimi tobora ko‘proq beqarorlik, raqobat va institutlarning o‘zgarishi bilan tavsiflanmoqda. Bunday sharoitda o‘rta kuchlar va yirik davlatlar o‘rtasida joylashgan mamlakatlar uchun tashqi siyosatning asosiy savoli o‘zgarmay qolmoqda: ittifoqlarga bog‘lanmasdan turib, qanday qilib

DOI: 10.5281/zenodo.24240510

xavfsizlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘sish uchun tashqi resurslarni jalb etish mumkin?

O‘zbekiston bu savolga 2016-yildan boshlab o‘ziga xos javob ishlab chiqdi. Rasmiy hujjatlar va xalqaro tahlilchilarning baholarida bu kurs “ochiq, pragmatik va muvozanatli” deb ta’riflanadi. Masalan, 2025-yilgi tashqi siyosat natijalariga bag‘ishlangan sharhlarda ochiqlik, teng huquqli sheriklik, o‘zaro hurmat, ichki ishlarga aralashmaslik va xalqaro huquqqa qat’iy rioya qilish kursning asosi sifatida ko‘rsatilgan [1]. Yangilangan tashqi siyosat konsepsiyasida esa harbiy bloklarga qo‘shilmaslik va hududda xorijiy harbiy bazalarni joylashtirmaslik tamoyili mustahkamlangani ta’kidlanadi [2].

“Yangi O‘zbekiston” tushunchasi davlatning nafaqat ichki siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, balki uning xalqaro maydondagi o‘rnini qayta belgilashga qaratilgan konseptual yondashuv sifatida namoyon bo‘ldi. Mazkur maqolaning maqsadi – Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining evolyutsiyasini ochiqlik va pragmatizm tamoyillari asosida ilmiy tahlil qilishdir.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o‘rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi dunyoning 168 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Toshkentda 48 ta chet el elchixonalari, 3 ta bosh konsullik, 16 nafar faxriy konsullar, 26 ta xalqaro tashkilotlar vakolatxonalari, 28 ta xorijiy xalqaro hukumatlararo va hukumat tashkilotlari vakolatxonalari, 1 ta savdo vakolatxonasi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda va xalqaro tashkilotlarda O‘zbekiston Respublikasining 62 ta diplomatik va konsullik vakolatxonalari mavjud. O‘zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlarning a’zosi bo‘lib, mamlakatimiz turli xil ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantiradi.[3]

Nazariy-metodologik asoslar

Tadqiqot xalqaro munosabatlar nazariyalarining kompleks yondashuvi asosida olib borildi. Realizm nazariyasi davlat manfaatlari, suverenitet va xavfsizlik omillarini tahlil qilish imkonini beradi. Liberalizm yondashuvi xalqaro hamkorlik, iqtisodiy integratsiya va institutlar rolini ochib beradi. Konstruktivizm esa Yangi O‘zbekistonning tashqi siyosiy identiteti va xalqaro imijining shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Metodologik jihatdan maqolada tizimli-tahliliy, taqqoshlash, siyosiy hujjatlar va rasmiy nutqlarni diskursiv tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual evolyutsiyasi:

1991–2016: mustaqillikni mustahkamlash va ehtiyotkor izolyatsiya – Mustaqillikning dastlabki yillarida tashqi siyosatning bosh vazifasi suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlikni ta’minlash va hududiy yaxlitlikni saqlash edi. Bu davrda O‘zbekiston harbiy-siyosiy tashkilotlardagi ishtirokida nisbatan o‘zgaruvchan yo‘l tutdi: Jamoaviy xavfsizlik shartnomasi tashkiloti bilan munosabatlar bir necha marta o‘zgardi va mamlakat 2012-yilda undan chiqdi. Tahlilchilar mintaqaviy hamkorlikka to‘siq bo‘lgan omillar qatorida O‘zbekiston va Turkmanistonning tarixan yopiq siyosatini ham ko‘rsatadi [4]. Natijada mintaqada chegara, suv va transport masalalari yillar davomida hal etilmay qoldi.

2016-yildan keyin: burilish nuqtasi – Shavkat Miziyoyev prezidentligining boshlanishi bilan tashqi siyosatda sifat o‘zgarishi yuz berdi. Tahlillarda 2016-yil oxiridan boshlab nisbiy yopiqlikdan ochiqlik, pragmatizm va faol ishtirokka o‘tish qayd etiladi [5]. Dastlabki ustuvor yo‘nalish aniq belgilandi: Markaziy Osiyo tashqi siyosatning birinchi darajali vazifasi deb e’lon qilindi. Bu qaror ichki islohotlar mantig‘i bilan bog‘liq edi: iqtisodni qayta jonlantirish uchun qo‘shnilar bilan transport, savdo va suv bo‘yicha munosabatlarni normallashtirish zarur edi.

Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining asosiy farqlovchi jihati ochiqlik va pragmatizmga asoslangan yondashuvdir. Avvalgi davrga xos bo‘lgan ehtiyotkorlik va cheklangan diplomatik aloqalar o‘rnini faol muloqot, o‘zaro manfaat va ishonchga asoslangan hamkorlik egalladi.

Mazkur evolyutsiya quyidagi konseptual tamoyillarga tayandi:

- milliy manfaatlarning ustuvorligi;
- tashqi siyosatda ideologiyadan xoli pragmatik yondashuv;
- mintaqaviy va global hamkorlikka ochiqlik;
- xalqaro huquq normalariga sodiqlik.

Bu tamoyillar O‘zbekistonni xalqaro munosabatlarda prognoz qilinadigan va mas’uliyatli aktor sifatida shakllantirdi.

2026-yil 15-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida TIV va diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga bag‘ishlangan videoselektorda tashqi siyosatni yangicha tashkil etish, iqtisodiy diplomatiya, investitsiya va eksportni oshirish, shuningdek, mamlakat imijini yaxshilash ustuvor vazifalar etib belgilandi.

Yig‘ilishning asosiy yo‘nalishlari va qarorlari:

Tashqi siyosat konsepsiyasini yangilash: Milliy manfaatlarni himoya qilish, iqtisodiy diplomatiya, xavfsizlik, transport-logistika va iqlim masalalarini o‘z ichiga olgan yangi konsepsiyani ishlab chiqish.

Diplomatlar faoliyatini baholash: Elchilarni faqatgina aniq natijalar (investitsiya hajmi, eksport va h.k.) asosida baholash tizimiga o‘tish.

Media loyihalar: Tashqi axborot siyosatini kuchaytirish va xalqaro OAV bilan ishlash ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ruhlantirish: "O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan diplomat" faxriy unvonini ta’sis etish taklif qilindi.

Prezident geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida elchilar oldiga O‘zbekiston manfaatlarini xalqaro miqyosda qat’iy himoya qilish talabini qo‘ydi.[6]

Markaziy Osiyoda Yangi O‘zbekistonning mintaqaviy roli. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida Markaziy Osiyo ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Qo‘shni davlatlar bilan chegara masalalarining hal etilishi, savdo-iqtisodiy aloqalarning faollashuvi va transport-logistika loyihalarining rivoji mintaqaviy integratsiyaga turtki berdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining muntazam Maslahat uchrashuvlarini o‘tkazishni taklif qildi; birinchi uchrashuv 2018-yil mart oyida bo‘lib o‘tdi [7]. Format tashqi vositachilarsiz ochiq muloqot maydoniga aylangani ko‘pincha asosiy yutuq sifatida ko‘rsatiladi [8].

O‘zbekiston mintaqada ishonch muhitini mustahkamlash, suv-energetika va ekologik muammolarni konstruktiv yo‘l bilan hal etish tarafdori sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa mamlakatning mintaqaviy yetakchilik salohiyatini kuchaytirmoqda.

Shuningdek, O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatidagi eng ko‘zga ko‘rinadigan natijalardan biri chegara bo‘yicha kelishuvlardir. 2025-yil 21-fevralda Qirg‘iziston va Tojikiston davlat chegarasini delimitatsiya qilish bo‘yicha yakuniy protokolni imzoladi, 31-martda esa uch davlat rahbarlari Davlat chegaralari tutashgan nuqta to‘g‘risidagi shartnomani tuzdi [9]. 2026-yil iyulida Cho‘lpon-Otada O‘zbekiston va Qirg‘iziston Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladi [10]. Bir necha yil avval chegara va ishonchsizlik mintaqa uchun asosiy xavf omillari ekanligini hisobga olsak, bu o‘zgarish ochiqlik siyosati samarasining eng ishonarli dalillaridan biridir.

Global miqyosda Yangi O‘zbekiston ko‘p vektorli diplomatiya strategiyasini izchil amalga oshirmoqda. BMT, SHHT, MDH, YXHT kabi xalqaro tuzilmalar doirasida faol ishtirok etish bilan bir qatorda, yetakchi global kuchlar bilan muvozanatli aloqalar yo‘lga qo‘yildi.

Afg‘oniston masalasida O‘zbekistonning tinchlikparvar tashabbuslari mamlakatni mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda muhim siyosiy aktorga aylantirdi.

O‘zbekistonning 2026-yilgi ustuvor vazifalar orasida tashqi siyosatning iqtisodga yo‘naltirilishi, fuqarolarning xavfsizligi va farovonligini ta’minlash hamda Jahon savdo tashkilotiga a’zolik jarayonini davom ettirish alohida qayd etilgan [11].

JST’ga a’zolik pragmatik va ochiq kursning eng yaqqol sinovi hisoblanadi. Jarayon tarixan 1994-yilga borib taqaladi, 2005-yildan to‘xtab qolgan, 2020-yil iyulida esa qayta tiklangan [12]. JST Bosh direktori 2025-yil sentabrida 2026-yil martigacha a’zolik bayram qilinishi mumkinligini aytgan edi [13]. Biroq bu muddat kechikdi: prezident farmoniga ko‘ra a’zolikni rasmiylashtirish uchun 2026-yil maqsadli yil sifatida belgilangan, rasmiy chiqishlarda esa yil oxirigacha yakunlash vazifasi qo‘yilmoqda [14].

“Yumshoq kuch” va xalqaro imij. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatida “yumshoq kuch” instrumentlarining ahamiyati sezilarli darajada oshdi. Ta’lim, madaniyat, turizm, gender tengligi va inson huquqlari sohasidagi islohotlar xalqaro maydonda ijobiy imijni shakllantirmoqda.

Xalqaro indeks va reytinglardagi ijobiy siljishlar tashqi siyosatdagi ochiqlik siyosatining amaliy samarasi sifatida baholanadi.

Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston tashqi siyosati global geosiyosiy raqobat, mintaqaviy xavfsizlik tahdidlari va iqtisodiy bog‘liqlik kabi muammolar bilan yuzlashmoqda. Ushbu sharoitda muvozanatli va pragmatik tashqi siyosat yuritish strategik ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. O‘zbekiston tashqi siyosati evolyutsiyasini quyidagicha umumlashtirish mumkin: 2016-yildan keyin ochiqlik siyosiy shiordan amaliy mexanizmlarga, pragmatizm esa umumiy tamoyildan o‘lchanadigan iqtisodiy natijalarga o‘tdi. Eng ishonarli yutuqlar Markaziy Osiyo yo‘nalishida (chegara kelishuvlari, muntazam muloqot, mintaqaviy savdoning o‘sishi) va sheriklar doirasini kengaytirishda ko‘zga tashlanadi. Shu bilan birga, JST’ga a’zolikning hali yakunlanmagani, savdo va migratsiya orqali bog‘liqlikning konsentratsiyasi, mintaqaviy loyihalar xavflari ochiqlik va pragmatizm o‘rtasidagi muvozanat doimiy boshqaruvni talab qilishini ko‘rsatadi.

Keyingi bosqich uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

• ***Bozorlar va sheriklarni diversifikatsiya qilish:*** eksport va investitsiya manbalarini kengaytirish, ayniqsa qayta ishlangan tovarlar va xizmatlar bo‘yicha;

• ***JST jarayonini yakunlash*** va a’zolikdan keyingi moslashuv siyosatini (sezgir tarmoqlar uchun o‘tish davrlari, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash) oldindan ishlab chiqish;

• ***Mintaqaviy institutlarni mustahkamlash:*** “Markaziy Osiyo hamjamiyati” uchun aniq vakolatlar, moliyalashtirish va nizolarni hal etish mexanizmlarini belgilash;

• ***Suv va energetika bo‘yicha amaliy kelishuvlar:*** o‘n yillik doirasida o‘lchanadigan maqsadlar va monitoring tizimini joriy etish;

• ***Tadqiqot ochiqligi:*** tashqi siyosat natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni mustaqil ekspertlar uchun ochish, shu orqali ishonchni oshirish;

• ***Madaniy va ilmiy diplomatiyani*** iqtisodiy diplomatiya bilan uyg‘unlashtirish.

Ochiqlik va pragmatizm – bir-birini inkor etmaydigan, balki bir-birini tekshirib turadigan tamoyillardir: ochiqlik imkoniyatlar doirasini kengaytiradi, pragmatizm esa tanlovning intizomini ta’minlaydi. Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining kelgusi muvaffaqiyati shu muvozanatni qanchalik izchil saqlashiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1] Dunyo IA. “Daily News Hungary”: 2025 marked a phase of qualitative renewal and consolidation in Uzbekistan’s foreign policy, 07.01.2026. https://dunyo.info/en/news/daily-news-hungary-2025-yil-ozbekiston-tashqi-siyosatida-sifat-jihatidan.

[2] Model Diplomat. Inside Uzbekistan’s foreign policy. https://modeldiplomat.com/country/uzbekistan.

[3] O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali. https://gov.uz/oz/activity_page/foreign_policy.

[4] Istituto Affari Internazionali. Like a Bull in a China Shop: Uzbekistan Traces a New Foreign Policy Direction. https://www.iai.it/print/8378.

[5] ANKASAM. Uzbekistan’s New Foreign Policy: Balancing East and West Through Strategic Openness. https://www.ankasam.org/anka-analizler/uzbekistans-new-foreign-policy-balancing-east-and-west-through-strategic-openness/?lang=en

[6] https://president.uz/oz/lists/view/8861.

[7] APP. Architects of Unity: Uzbekistan Shapes Integration Trends for Central Asia. https://www.app.com.pk/?p=1113252.

[8] APP. Central Asia enters new era of cooperation as leaders gather in Tashkent. https://www.app.com.pk/?p=1110371.

[9] APP. Architects of Unity (chegara kelishuvlari bo‘limi). https://www.app.com.pk/?p=1113252.

[10] Times of Central Asia. Central Asia and Azerbaijan: What the region’s leaders agreed at Issyk-Kul, 31.07.2026. https://timesca.com/central-asia-and-azerbaijan-what-the-regions-leaders-agreed-at-issyk-kul/.

[11] UzA. Diplomacy of Results: Uzbekistan’s Foreign Policy in 2025–2026. https://uza.uz/ar/posts/diplomacy-of-results-uzbekistans-foreign-policy-in-2025-2026_807763.

[12] Kun.uz. Uzbekistan aims to join WTO within a year, 21.02.2025. https://kun.uz/en/news/2025/02/21/uzbekistan-aims-to-join-wto-within-a-year

[13] Kun.uz. WTO hopes to welcome Uzbekistan as member in early 2026, 29.09.2025. https://kun.uz/en/news/2025/09/29/wto-hopes-to-welcome-uzbekistan-as-member-in-early-2026.

[14] Kun.uz. Economic growth and foreign markets – Why Uzbekistan is accelerating WTO accession, 24.03.2026. https://kun.uz/en/news/2026/03/24/economic-growth-and-foreign-markets-why-uzbekistan-is-accelerating-wto-accession.